XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 1-fevral VII-5-10-5-0-K/25 Navoiy viloyati

Maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun to‘lov tariflarini ma’qullash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 16^2, 24-moddalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-5-sonli Farmoni, viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01/1-6897-sonli xati, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 17-dekabrdagi 01-12/20-11-38/2957-sonli, 01-12/20-11-38/2956-sonli, viloyat adliya boshqarasining 2025-yil 15-yanvardagi 498-sonli xulosalari, agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2025-yil 30-yanvardagi DKQ /1-25-sonli qarori, hududlardagi maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini takomillashtirish, ekologik hamda sanitariya holatini yanada yaxshilash maqsadida, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-5-sonli Farmoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.“MIRONSHOX KOMFORT SERVIS” mas‘uliyati cheklangan jamiyat tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan G‘ozg‘on shahri, Xatirchi, Navbahor, Nurota va Konimex tumanlari hududlarida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha to‘lov tariflari 1-ilovaga, “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi” DM tomonidan maishiy chiqindilarni joylashtirish, saqlash, utilizatsiya qilish, zararsizlantirish xizmati uchun majburiy to‘lov tariflari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (R.Ergashev), viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (N.Safoyev),

viloyat Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi boshqarmasi (Z.Azimov) shahar va tumanlar hokimliklari fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

4. Viloyat hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Sh.Raubayeva), viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (D.Mamarajabov), viloyat teleradiokompaniyasi (G‘.Sultonov), “Do‘stlik bayrog‘i” va “Знамя дружбы” gazetalari tahririyati davlat korxonasi (B.Umarov)ga olib borilayotgan ishlarni doimiy ravishda ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimi o‘rinbosari (E.Kamolov) hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Isoqov) va agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Jalilov) larzimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



ALIYEV G‘OFIR QUVATOVICH

Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining
2025-yil 1-fevraldagi
VII-5-10-5-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

"MIRONSHOX KOMFORT SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyat tomonidan G‘ozg‘on shahri, Xatirchi, Navbahor, Nurota va Konimex tumanlari hududlarida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun to‘lov
TARIFLARI

so‘mda

T/r	Hudud nomi	Aholi uchun (Bir oyda bir kishiga)		Yuridik shaxslarga (1 m³ chiqndi uchun)	
		QQS siz	QQS bilan	QQS siz	QQS bilan
1	G‘ozg‘on shahri, Xatirchi, Navbahor, Nurota va Konimex tumanlari	4 420	4 950	71 500	80 080

Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining
2025-yil 1-fevraldagi
VII-5-10-5-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

“Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi” DM tomonidan maishiy chiqindilarni joylashtirish, saqlash, utilizatsiya qilish, zararsizlantirish xizmati uchun to‘lov

TARIFLARI

so‘mda

T/r	Hudud **nomi**	**1 m3 uchun**		**1 tonna uchun**	
		QQS siz	**QQS bilan**	**QQS siz**	**QQS bilan**
1	Maishiy chiqindilarni joylashtirish, saqlash, utilizatsiya qilish, zararsizlantirish xizmati uchun viloyat bo‘yicha to‘lov	18 000	20 160	43 690	48 933